

YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH VA IQTISODIYOTGA TA’SIRI

Hasanova Nozikbonu To‘ymurod qizi

Iskandarov Sardor Soli o‘gli

Buxoro Davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti

3-1 MAR-24 guruh talabasi va 3-1 IQTKT-21 guruh talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ‘Yashil energetikaga o‘tish va iqtisodiyotga ta’siri’ mamlakatimizda cheklangan, qayta tiklanmaydigan resurslardan oqilona foydalanish, barqaror iqtisodiy rivojlanishni taminlash, energiya samaradorligini oshirishdagi muhim malumotlar keltiriladi. Shu bilan bir qatorda ‘Yashil energetikaga o‘tish va iqtisodga ta’siri’ ning ahamiyati va uning iqtisodiy va ekologik samaradorligi tahlil etiladi.*

Kalit so‘zlar: *Energiya, qayta tiklanadigan, yashil energetika, yashil iqtisodiyot, atrof muhit, tadqiqot, barqaror, strategiya.*

Kirish.

Yashil iqtisodiyotga o‘tish, tabiiy resurslarni samarali ishlatish va atrof-muhitni himoya qilish maqsadida zaruriy bir yondashuv hisoblanadi. Bu jarayonning ahamiyati kuchli iqlim o‘zgarishi va ekologik muammolar bilan bog‘liq. Iqlim o‘zgarishining ta’siri nafaqat tabiatni, balki insoniyatning yashash sharoitlarini ham jiddiy ta’sir qilmoqda. Issiqxona gazlarining ko‘payishi, qurg‘oqchilik, sel va to‘fonlar kabi tabiiy ofatlar dunyo bo‘ylab yirik ekologik falokatlariga olib kelmoqda. Bu holat, o‘z navbatida, yashil iqtisodiyotga o‘tishni tezlashtirish zaruratini yaratdi. Bugungi voqelikda iqtisodiy farovonlik tobora ekologik toza, resurslarni tejaydigan texnologiyalar va yondashuvlarni joriy etishga bog‘liq. Axir, dunyo aholisi o‘sib bormoqda va tabiiy resurslar doimiy ravishda qisqarmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, "yashil iqtisodiyotga" o'tish bir qancha afzalliklarga ega.

Tahlil va natijalar.

Yashil iqtisodiyot bu iqtisodiy tizim bo‘lib, uning asosiy maqsadi sayyoramizning ekologiyasi va uni saqlab qolish bilan birga iqtisodiyotning barcha sohalarini rivojlantirishga qaratilgan. Yashil iqtisodiyot – inson hayoti va sog‘ligi uchun zarur bo‘lgan resurslarni, atrof-muhit va ekologiyani bir butun holda saqlab qolib ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarini bilan bog‘liq iqtisodiyotni yanada rivojlantirishni amalga oshirishga asoslangan iqtisodiy faoliyatning yangi yo‘nalishi tushuniladi. Keyingi yillarda mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirishga e’tibor qaratmoqda. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Markaziy Osiyo elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun bir vaqtning o‘zida quyosh, shamol, suv kabi tabiiy resurslar bo‘yicha katta salohiyatga ega ekanligi bu boradagi rejalar salmog‘ini ortig‘i bilan bajarish imkonini beradi. Hozirgi kunga kelib ko‘plab aholi elektr energiyasidan foydalanish maqsadida tabiiy ravishda elektr energiya o‘rnini bosadigan quyosh panellaridan foydalanishni afzal ko‘rmoqdalar. Bu nafaqat aholi uchun balki tabiat uchun ham katta foydadir. Eng muhimi, bu yo‘nalishdagi islohotlarning aholi turmush tarziga bo‘lgan ijobiy ta’siri yuqori. Xususan, aholi va tadbirkorlar tomonidan 1

ming megavattli quyosh panellari o'rnatilib, yiliga 1,5 milliard kilovatt soat elektr energiyasi olinmoqda. Qolaversa, yangi ishga tushirilgan quvvatlar, korxonalar minglab ish o'rinlari yaratilishiga, iqtisod qilingan gaz esa aholi iste'moliga yo'naltirilishiga sabab bo'lmoqda. Hozirgi kunga kelib O'zbekiston elektr energiyasini aholiga yatkazib berish maqsadida ko'plab loyihalar ustida ish olib bormoqda. Bu loyihalardan biri aholini elektr energiyasi bilan ta'minlash maqsadida quyosh panellaridan foydalanishni aholiga taklif qilmoqda. Bu loyiha orqali ko'plab aholi elektr energiyasi bilan taminlanadi. Nafaqat bu aholini ehtiyojlarini qoplaydi balki davlat iqtisodiyotiga ham katta foyda beradi. Chunki davlat ortiqcha ishlab chiqarilgan elektr energiyasini eksport qiladi va bundan kelgan mablag'ni import tovarlarga yo'naltiradi. Bu esa davlat byudjetiga katta foyda keltiradi. Hozirgi kunga kelib Xitoy aholisining elektr energiyaga bo'lgan talabi kundan kunga oshib bormoqda. Shu sababdan ko'plab aholi binolarining tom qismini butunlay quyosh panellari orqali qoplamoqda va bu orqali ular ko'plab energiyadan foydalanishga erishadilar hamda bu tabiatga ham zarar yetkazmaydi. Shu bilan birga Tesla kompaniyasi ham shu loyiha ustida katta ish olib bormoqda. Hozirgi kunda bu loyihani O'zbekistonga olib kirish ham aholi uchun ham davlatning iqtisodi uchun katta foyda beradi. Agar aholi uyining tom qismini butunlay quyosh panellari orqali qoplasalar bu ularning daromad manbayiga katta foyda beradi. Chunki quyosh panellari nafaqat elektr energiya yaratib beradi balki uylar tomini ham qoplab oladi. Hozirgi kunda Xitoy ham ko'proq elektr energiya ishlab chiqarish maqsadida Rassiyaning ayrim hududlarini ijaraga olib u yerga quyosh panellarini o'rnatib elektr energiyasini olmoqda. O'zbekistonning ayrim chekka hududlariga elektr energiyasini uzatish juda qiyin va shu bilan birga katta mablag'ni talab etadi. Bu esa davlatning iqtisodiyotiga katta ta'sir ko'satadi. Shu bois ayrim chekka hududlarda quyosh panellarini o'rnatish loyihalari olib borilsa nafaqat aholi uchun katta imkoniyatlar yaratadi balki davlatning ham iqtisodiyotiga katta foyda bo'ladi. Chunki mamlakatimiz quyoshli o'lka bo'lganligi sababli yilning to'rt faslida ham o'lkamiz quyoshli. Shunga o'xshagan tabiiy resurslardan foydalanishimiz tabiatga zaraz yetkazmaydi va davlat byudjetiga ham katta hissa qo'shadi.

Yashil iqtisodiyot uchta ustunga asoslanadi – insoniyat, foyda va sayyora. Iqtisodiyotda harakatlanayotgan sog'lom jamoalar sog'lom ishchi kuchi bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Har uchta ustun birgalikda iqtisodiy va ekologik barqarorlikni hamda ijtimoiy farovonlikni ta'minlashga qaratilgan bo'ladi.

Markaziy Osiyo elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun bir vaqtning o'zida quyosh, shamol, suv kabi tabiiy resurslar bo'yicha katta salohiyatga ega ekanligi bu boradagi rejalar salmog'ini ortig'i bilan bajarish imkonini beradi.

Umuman olganda, O'zbekistonning "yashil" energetikaga jadallik bilan o'tishi, avvalo, mintaqada ekologik muvozanatni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholining energiyaga bo'lgan ehtiyojini ta'minlashda muhim qadam hisoblanadi.

O‘zbekistonda yashil energetika rivoji va uning iqtisodiy-ijtimoiy ta’siri (2021–2025)

Mazkur hujjatda 2021–2025 yillarda O‘zbekistonda yashil energetika (quyosh, shamol va gidroenergetika) rivojlanishining inflyatsiya, ishsizlik, bandlik, iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy hayotga ko‘rsatgan ta’siri batafsil yoritilgan.

1. Asosiy statistik ko‘rsatkichlar

Y	Yashil energetika ulushi (%)	Inflyatsiya (%)	Ishsizlik (%)	YAIMga ta’siri	Energiya bozorida o‘zgarish	Ijtimoiy ta’sir
2	10	10.0	5.5	Boshlang‘ich ta’sir	Gazga qaramlik yuqori	Yashil sohada bandlik kam
2	12	11.4	4.5	Investitsiya faolligi oshdi	Quyosh loyihalari ishga tushdi	Hududlarda vaqtinchalik ish o‘rinlari
2	14.9	9.9	4.4	Energetika YAIM ulushi oshdi	Elektr ta’minoti barqarorlashdi	Yangi mutaxassisliklar paydo bo‘ldi
2	18	9.8	4.5	Energiya tannarxi pasaydi	Shamol va quyosh ulushi oshdi	Hududiy bandlik kengaydi
2	23	7.8	4.5	Barqaror iqtisodiy o‘sinh	Yashil energiya ustunlik qila boshladi	Doimiy ish o‘rinlari ko‘paydi

2. Yashil energetikaning iqtisodiy ta’siri

Yashil energetika rivoji O‘zbekiston iqtisodiyotida muhim tarkibiy o‘zgarishlarga olib keldi. Elektr energiyasi ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi manbalar ulushining oshishi energiya importiga bo‘lgan ehtiyojni kamaytirdi va milliy valyuta barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Energiya tannarxining pasayishi sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirib, inflyatsiya bosimini sekinlashtirdi.

3. Inflyatsiyaga ta’siri

2021–2023 yillarda inflyatsiya asosan global omillar ta’sirida yuqori bo‘lgan bo‘lsa, 2024–2025 yillarga kelib yashil energetika loyihalari energiya narxlarining barqarorlashishiga yordam berdi. Bu holat kommunal xizmatlar va ishlab chiqarish xarajatlarining o‘shishini chekladi.

4. Bandlik va ishsizlikka ta’siri

Yashil energetika sohasidagi investitsiyalar qurilish, muhandislik, texnik xizmat va ilmiy sohalarda yangi ish o‘rinlarini yaratdi. Ayniqsa, hududlarda ishsizlik darajasini pasaytirishda muhim omil bo‘ldi.

2025 yilga kelib yashil energetika bilan bog‘liq doimiy va yuqori malakali ish o‘rinlari shakllandi.

5. Ijtimoiy va ekologik o‘zgarishlar

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari rivojlanishi ekologik holatni yaxshilab, atmosferaga zararli gazlar chiqishini kamaytirdi. Bu aholining sog‘lig‘i va yashash sifati oshishiga xizmat qildi.

Shuningdek, energiya ta’minotining barqarorlashuvi qishloq hududlarida ta’lim va sog‘liqni saqlash xizmatlari sifatini yaxshilashga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, 2021–2025 yillarda O‘zbekistonda yashil energetika rivoji inflyatsiyani pasaytirish, bandlikni oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynadi. Ushbu yo‘nalish kelgusi yillarda ham mamlakatning barqaror rivojlanishida asosiy omillardan biri bo‘lib qoladi. Hozirgi kunda ko‘plab loyihalar ishlab chiqilmoqda va bu loyihalarni amalga oshirish maqsadida chet eldan ko‘plab texnikalar olib kirish rejalashtirilmoqda. Shu bois bu texnologiyalarni o‘rganishga yoshlarni jalb qilish va bu texnikalarni iloji boricha O‘zbekistonda ham ishlab chiqarishni yo‘lga qoyish kerak. Bu ishlar orqali davlat iqtisodiyoti ancha o‘sadi. Yoshlarni maktab davridanoq dunyo qarashini kengaytirish lozim. Ko‘plab bilimlarni faqatgina nazariy beribgina qolmay balki amalda ham shu bilimlarni qo‘llashni ularga maktab davridan o‘rgatish lozim deb hisoblayman. Turli korxonalar bilan kelishuvlar imzolaniib ularga amaliy bilimlar berilsa ular o‘rgangan nazariy bilimlarini amalda qo‘llashadi va bilimlari mustahkamlanadi. Aytib o‘tilgan loyihalar amalga oshirilsa va u to‘g‘ri qo‘llansa mamlakatimiz yanada rivojlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. United Nations Environment Programme. (2011). *Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication*. UNEP.
2. World Bank. (2012). *Inclusive Green Growth: The Pathway to Sustainable Development*. World Bank Publications.
3. Organisation for Economic Co-operation and Development. (2011). *Towards Green Growth*. OECD Publishing.
4. Organisation for Economic Co-operation and Development. (2017). *Green Growth Indicators 2017*. OECD Publishing.
5. United Nations. (2015). *Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development*. United Nations.
6. International Renewable Energy Agency. (2023). *World Energy Transitions Outlook 2023*. IRENA.
7. Stern, Nicholas. (2007). *The Economics of Climate Change: The Stern Review*. Cambridge University Press.
8. Bowen, Alex., & Fankhauser, Samuel. (2011). The green growth narrative: Paradigm shift or just spin? *Global Environmental Change*, 21(4), 1157–1159.

9. Porter, Michael E., & van der Linde, Claas. (1995). Toward a new conception of the environment-competitiveness relationship. *Journal of Economic Perspectives*, 9(4), 97–118.
10. United Nations Development Programme. (2022). *Human Development Report 2021/2022: Uncertain Times, Unsettled Lives*. UNDP.